Aktamova Vasila Uktamovna, Axtamova Umida Uktamovna	
IOT VA AI INTEGRATSIYASI ORQALI SUVNI TEJASH.....	475
Raxmatullayeva Nozima Shodiqulovna	



BUXGALTERIYA HISOBINING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA LOGISTIKA XARAJATLARI HISOBI VA HISOBOTLARINI YURITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Nasim Boboev

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Marketing” kafedrası professori v.v.b., i.f.n.

Yorbekova Dilorom Muxammadqulovna

Samarqand davlat veterinariya medisinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti «Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrası assistenti

Umidullo Fayzullaev

“Iqtisodiyot” fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada logistika xarajatlarini Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari (IFRS) asosida to'g'ri va samarali tashkil qilish masalalari tahlil etilgan. Bugungi kunda moddiy resurslar harakati bilan bog'liq bo'lgan logistik operatsiya va funksiyalarni hisobga olishda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish usullari ko'rib chiqilgan. Muallif logistik xarajatlarni hisobga olish uchun alohida hisob schetlarini joriy etish, operatsiyalarni identifikatsiyalash va ularni tahlil qilish imkoniyatini yaratish zarurligini asoslab bergan. Shuningdek, xalqaro tajriba, jumladan, rivojlangan mamlakatlar misolida logistikaning iqtisodiyotdagi roli va undan samarali foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Maqolada logistika xarajatlarini hisobga olishni takomillashtirish orqali moliyaviy hisobotlarning ishonchligini va foydali tahlil qilish imkoniyatlarini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: IFRS, buxgalteriya hisobi, logistika xarajatlari, moliyaviy hisobot, moddiy resurslar, muomala xarajatlari, hisobot standartlari, logistik operatsiyalar, tahlil, samaradorlik.

Abstract: This article addresses the organization of logistics cost accounting based on International Financial Reporting Standards (IFRS). The relevance of the topic stems from the need for accurate recording of logistics operations and functions associated with the movement of material resources. The author emphasizes the necessity of introducing separate accounting accounts for logistics operations, which allows for precise identification and analysis of cost structures. The study also examines international practices and highlights the economic importance of logistics, especially in industrialized countries. Special attention is given to enhancing the reliability of financial reporting and improving analytical capabilities by optimizing logistics cost accounting.

Key words: IFRS, accounting, logistics costs, financial reporting, material resources, distribution costs, accounting standards, logistics operations, analysis, efficiency.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы организации учёта логистических расходов на основе Международных стандартов финансовой отчётности (IFRS). Актуальность темы обусловлена необходимостью точного учёта логистических операций и функций, связанных с движением материальных ресурсов. Автор подчёркивает важность введения отдельных счетов бухгалтерского учёта для логистических операций, что позволит точно определять объём и структуру расходов. Также анализируется международный опыт и роль логистики в экономике, в частности в промышленно развитых странах. Особое внимание уделено повышению достоверности финансовой отчётности и улучшению аналитических возможностей за счёт совершенствования учёта логистических затрат.

Ключевые слова: IFRS, бухгалтерский учёт, логистические расходы, финансовая отчётность, материальные ресурсы, издержки обращения, учётные стандарты, логистические операции, анализ, эффективность.



KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotning globallashuvi, raqobatbardoshlikning ortishi va biznes muhitdagi dinamik o'zgarishlar sharoitida moliyaviy axborotning ishonchliligi va xolisligi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, xo'jalik sub'ektlari faoliyatida logistikaning roli tobora ortib borayotgani bilan bir qatorda, ushbu sohada yuzaga kelayotgan xarajatlarning to'g'ri hisobga olinishi va tahlil qilinishi ham muhim vazifalardan biriga aylanmoqda.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) bugungi kunda ko'plab davlatlar tomonidan qabul qilinib, hisobotlarni standartlashtirish va ularning shaffofligini ta'minlashda asosiy mezon vazifasini o'tamoqda. Shu nuqtai nazardan, logistika xarajatlarini aynan IFRS asosida to'g'ri va samarali hisobga olish, ularning to'liq tasniflanishi, tahlil qilinishi va boshqarilishini ta'minlaydi.

Amalda esa ko'pgina korxonalar logistik operatsiyalar bilan bog'liq xarajatlarni umumiy xarajatlar tarkibida aks ettiradi va ularni alohida hisobga olmaydi. Bu esa moliyaviy natijalarning noto'g'ri shakllanishiga, xarajatlarni optimallashtirish imkoniyatlarining yo'qolishiga olib keladi. Shu munosabat bilan, logistika xarajatlarini xalqaro standartlar asosida hisobga olish va hisobotda aks ettirishni takomillashtirish muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (International Financial Reporting Standards, IFRS) – bu kompaniyalar va tashkilotlar tomonidan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishda qo'llaniladigan xalqaro me'yorlar to'plamidir. IFRS buxgalteriya hisobini standartlashga yo'naltirilgan va moliyaviy hisobotlarning barcha hududlarda bir xil bo'lishini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

IFRS – xalqaro buxgalteriya standartlari moliyaviy hisobotlarning aniqligini, ishonchliligini va solishtirilish imkoniyatini ta'minlaydi. Bu standartlar hisobotlarni tashkil qilishda yordam beradi va global iqtisodiy faoliyatni samarali tartibga soladi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari – IFRS quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- ishonchlilik, ya'ni moliyaviy hisobotlarning to'g'ri, xolis va aniq shakllantirilishi;
- ko'rimlilik, ya'ni solishtirish, tahlil va talqin qilishning qulayligi;
- taqsimlanganlik, aktivlar, passivlar va daromadlarning aniq tarzda va bir xil shaklda taqsimlanishi;
- baholashning haqqoniyliqi, aktivlar va passivlarning haqqoniy va mantiqiy asosda baholanishi;
- solishtirish imkoniyatining mavjudligi, hisobotlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni boshqa sub'ektlar ma'lumotlari bilan solishtirish imkoniyatining mavjudligi.

IFRSning asosiy maqsadi – har bir biznes sub'ekting moliyaviy hisobotlarini bir xil shaklda, aniq va shaffof shakllantirishdan iborat. Bu esa investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tashkilotlar uchun ishonchli va to'liq ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

Buxgalteriya hisobining ob'ekti sifatida logistika operatsiyalari va ularga sarflanadigan xarajatlarni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (IFRS) asosida hisobga olish muhim va dolzarb muammo hisoblanadi. Biznes sub'ektlari xo'jalik va moliyaviy faoliyat yuritish jarayonida ro'y beradigan ko'plab logistik operatsiya va funksiyalarni alohida hisob schetlarida hisobga olmaydilar. Natijada, ushbu operatsiya va funksiyalarni bajarish uchun sarflanadigan xarajatlar tarkibi hamda miqdorini aniq bilmaydilar. Bu esa xo'jalik va moliyaviy faoliyat natijalarini noto'g'ri baholanishiga olib kelmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Logistika xarajatlarini hisobga olish va tahlil qilish masalalari xalqaro amaliyotda ancha keng o'rganilgan. Xususan, Pol Konvers va Piter Druker logistikaning iqtisodiyotdagi o'rnini baholab, uni xarajatlarni tejashda muhim vosita sifatida ko'rsatganlar. Maykl Porter esa logistikani qiymat zanjiri konsepsiyasida muhim strategik omil sifatida tasvirlaydi. M.D. Stok va boshqa amerikalik tadqiqotchilar logistika operatsiyalarini strategik boshqaruvning ajralmas qismi sifatida o'rganganlar.

IFRS standartlariga oid adabiyotlarda logistika xarajatlarini hisobga olishga doir aniq tavsiyalar kam uchraydi, ammo aktivlar va xarajatlar klassifikatsiyasiga oid umumiy prinsiplar masalani hal qilishda asos bo'la oladi. Jumladan, IAS 2 (Inventories), IAS 1 (Presentation of Financial Statements) va IAS 38 (Intangible Assets) kabi standartlar logistika bilan bog'liq xarajatlarni to'g'ri klassifikatsiyalash uchun asosiy yo'nalishlarni belgilab beradi.

O'zbekistondagi tadqiqotlarda esa bu yo'nalish hali etarlicha rivojlanmagan. Mahalliy mualliflar tomonidan logistika xarajatlarining ahamiyati va ularni hisobga olishning umumiy prinsiplari haqida fikrlar bildirilgan bo'lsa-da, ularni IFRS'ga moslashtirishga oid ilmiy ishlanmalar etarli emas. Bu esa ushbu mavzuni yanada dolzarb va o'rganilishi zarur masalaga aylantiradi.

Moliyaviy xarajatlarni tejashda logistikaning amaliy imkoniyatlari beqiyos ekanligini birinchilardan bo'lib, amerikalik mutaxassislar Pol Konvers va Piter Drukerlar payqadilar. Ular logistikaning "xarajatlarni tejashning



oxirgi chegarasi” va “iqtisodiyotning kashf qilinmagan noma'lum materigi” sifatidagi potensial imkoniyatlarini aniqladilar. Keyinchalik ularning fikrlariga boshqa mutaxassislar ham qo'shildilar. M. Porter, D. Stok va boshqa amerikalik tadqiqotchilarning fikrlaricha, logistika an'anaviy moddiy resurslar harakatini boshqarishning tor doirasidan chiqib, kompaniya va firmalar faoliyatida strategik boshqarish va rejalashtirishda alohida hisobga olinadigan asosiy iqtisodiy kategoriya sifatida qaraldi.

Logistikaning iqtisodiyotda qo'llanilishi natijasida moddiy resurslarni etkazib berishdan ko'riladigan samaradorlik keskin oshmoqda. Moddiy resurslarni iste'molchiga etkazib berish jarayonida ular ta'minot, ishlab chiqarish, transport, ombor va taqsimotning turli bo'g'inlaridan o'tadilar. Ushbu bo'g'inlarda moddiy resurslar bilan logistik operatsiyalar deb ataluvchi ko'p miqdordagi turli tuman operatsiyalar (ishlar) bajariladi. Biz logistik operatsiyalarni o'z vaqtida buxgalteriya hisobining mos schetlarida hisobga olish kerak deb hisoblaymiz. Chunki, u har bir logistik operatsiya uchun sarflangan xarajatlarni hisoblash va xarajatlar moddalari bo'yicha alohida hisob schetlarida aks ettirish (identifikatsiyalash) imkoniyatini yaratadi. Natijada logistika tizimining bo'g'inlarida bajarilgan barcha logistik operatsiya va funksiyalar bo'yicha ular hajmi (miqdori) va ularga qilinadigan xarajatlarni buxgalteriya hisobining alohida schetlarida hisobga olish va hisobotlarni shakllantirish mumkin bo'ladi. Bu, o'z navbatida, biznesning tovar-moddiy resurslar (TMR) harakati bilan bog'liq bo'lgan sohasi faoliyatini tahlil qilish asosida foydalanilmayotgan yoki samarasiz foydalanilayotgan rezervlarni aniqlashni ta'minlaydi.

Afsuski, logistika menejmenti sohasida mutaxassis kadrlarning juda ozligi, logistika amaliyoti bilan boshqaruv va moliyaviy hisob amaliyoti o'rtasida integratsiyaning sustligi sababli, logistik operatsiyalar va ularga qilinadigan xarajatlar hisobi va hisobotini yuritishni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (IFRS) asosida tashkil qilish masalalari mamlakatimiz hisob tizimida hanuzgacha oqsamoqda.

Ta'kidlash o'rinliki, logistik operatsiya va funksiyalar hisobi va hisobotini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (IFRS) asosida yuritish natijasida moddiy resurslar oqimini rejalashtirish, hisobga olish, amalga oshirish, nazorat qilish, muvofiqlashtirish, umuman uni optimal boshqarish uchun zarur bo'lgan dastlabki-bazis ma'lumotlar shakllantiriladi.

Shuning uchun ham moddiy resurslar oqimini boshqarishga logistik yondashuvning paydo bo'lishi va rivojlanishiga, avvalo, sanoati rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy omillar, xususan, muomala sohasidagi xarajatlarning keskin oshishi ta'sir ko'rsatdi.

Sanoat ishlab chiqarishi kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoni hisoblanib, bu jarayon umumiy holda ta'minot, ishlab chiqarish va taqsimot bo'g'inlarining uzviy ketma-ketlikdagi faoliyatlaridan tarkib topgan bo'ladi, hamda davriy (siklik) ravishda takrorlanib turadi. Takror ishlab chiqarishning har bir davri ta'minotdan boshlanib, taqsimot bilan tugaydi. Ta'minot va taqsimot jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarga muomala xarajatlari deyiladi.

Ishlab chiqarishning yuqori darajada kooperatsiyalashuvi va integratsiyalashuvi natijasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi oshdi, mahalliy va xalqaro xo'jalik aloqalari kengaydi. Buning natijasida TMRni etkazib berish kanallaridagi muomala xarajatlari keskin ko'paydi.

Bunday holatlar sanoat menejmenti va yirik tadbirkorlar oldiga bozor faoliyatini optimal boshqarish va muomala xarajatlarini tejashning yangi usul va shakllarini ishlab chiqish vazifasini qo'ydi.

Iqtisodiyotda muomala xarajatlari vaqt va mablag' (pul) sarfi ko'rsatkichlari bilan baholanadi. Rivojlangan mamlakatlarning sanoat korxonalari sarflaydigan muomala xarajatlarini bu ikki ko'rsatkich bo'yicha tahlil qilish natijalari quyidagi xulosalarni chiqarishga asos bo'ldi:

1. Takror ishlab chiqarishning bitta siklida, ya'ni TMRni dastlabki xom ashyo va boshqa manbalardan sanoat korxonasiga etkazib berish, korxona tseklarida ularga texnologik ishlov berish va yig'ish asosida tayyor mahsulotni ishlab chiqarish, hamda mahsulotni tovar ko'rinishida oxirgi iste'molchigacha etkazib berish jarayonlariga sarflanadigan jami vaqtning 93 foizi moddiy resurslarni ta'minotning turli darajadagi ko'plab bo'g'inlaridan o'tishiga, ushbu vaqtning asosiy qismi saqlashga, atigi 2 foizi bevosita ishlab chiqarishga, 5 foizi esa tashishga sarf qilinarkan.

Rivojlangan mamlakatlar yalpi milliy mahsulotida TMRni etkazib berish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar ulushi 20 foizni tashkil qiladi. Etkazib berish xizmatlari tarkibida zaxiralarni boshqarish xarajatlari 44 foizni, ekspeditsiya va ombor xarajatlari 16 foiz, magistral tashish xarajatlari 23 foiz, texnologik tashish xarajatlari 9 foiz va taqsimot (tayyor mahsulotni sotish) xarajatlari 8 foizni tashkil qiladi.

TMRni xalqaro bozor doirasida iste'molchilarga etkazib berish operatsiyalari milliy bozorlardagiga qaraganda ancha murakkab va qimmatbaho hisoblanadi. Eksport-import tovarlari bo'yicha bu operatsiyalarga qilinadigan xarajatlar ular qiymatining 25–35 foizini tashkil qilsa, ichki bozorda shunday operatsiyalarga qilinadigan xarajatlar tovarlar qiymatining 8–10 foizini tashkil qiladi [].

TMR harakati, ya'ni moddiy oqim (MO)ni rasional tashkil qilish muammosi doimo dolzarb bo'lgan va bundan keyin ham dolzarb bo'ladi. Chunki MO bilan bog'liq bo'lgan xarajat (vaqt va moliyaviy)lar, ya'ni muomala xarajatlarning jami xarajatlardagi ulushi salmoqli bo'lish bilan birgalikda o'sish tendensiyasiga ham ega []. Ta'kidlash joizki, MO logistik operatsiyalarni bajarish natijasida vujudga keladi.



Moddiy oqimni vujudga keltiruvchi aniq bir maqsadli harakatga logistik operatsiya deyiladi. Logistik operatsiyalar faqatgina moddiy oqimlarga xos bo'lib qolmay, moliyaviy, servis va axborot oqimlarining ham logistik operatsiyalari mavjud, ya'ni moddiy oqim o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Moddiy oqim jarayoni ro'y berishi uchun moliyaviy axborot va servis xizmatlar ko'rsatish talab qilinadi.

Har qanday biznes jarayon umumiy holda ta'minot, ishlab chiqarish va taqsimot funksiyalarini bajaruvchi bo'g'inlardan tashkil topadi va ularda turli ombor hamda transport-tashish operatsiyalari bajariladi.

Logistika operatsiyalari va ularga sarflanadigan xarajatlarni buxgalteriya hisobining schetlarida IFRS standartlariga muvofiq to'g'ri aks ettirish uchun turli aktivlar va xarajatlarni belgilash va tasniflash kerak bo'ladi, ya'ni har bir logistik operatsiya va xarajat turi uchun maxsus buxgalteriya schetlaridan foydalanish kerak.

1. Transport, sug'urta, bojxona xarajatlari:

1.1. TMRni transport vositasiga yuklash va transport vositasi yuk bo'lmasida taxlash;

1.2. TMRni tashish;

1.3. TMRni tushirish;

1.4. Ekspeditorlik;

1.5. Bojxona;

1.6. Sug'urta;

1.7. Boshqa xarajatlar.

Transport xarajatlari aks ettiriladigan asosiy schetlar quyidagilar:

Schet 611 – tovarlar uchun xarajatlar, agar transport xarajatlari tovarlarning qiymatiga qo'shilsa;

Schet 621 – tarqatish va marketing xarajatlari, agar transport logistikasi xarajatlari tovarlarni savdoga chiqarish va tarqatish bilan bog'liq bo'lsa;

Schet 641 – ma'muriy xarajatlar, agar transport logistikasining ba'zi qismi kompaniyaning ichki boshqaruv ishlariga oid bo'lsa, yoki ombor boshqaruvi bilan bog'liq bo'lsa;

Schet 751 – boshqa xarajatlar, agar transport logistikasiga qaratilgan xarajatlar alohida xarajatlar bo'lib, ularning aniq tasnifi mavjud bo'lmasa.

Misol uchun:

Aytaylik, kompaniya tovarlarni savdoga chiqarish uchun transport logistika xizmatiga 2000 dollar to'ladi. Bu holda transport xarajatlari tarqatish va marketing xarajatlari schetida aks ettiriladi:

Debet (Tarqatish va marketing xarajatlari) Schet 621: 2000 dollar

Kredit (Naqd pul yoki bank hisobidan to'lov) Schet 512: 2000 dollar

Tovarlarning transportirovka xarajatlari tovarlarning umumiy qiymatiga qo'shilgan. Kompaniya tovarlarni jo'natish uchun transport xarajatlarini (5000 dollar) to'lagan va bu xarajatlar tovarning qiymatiga qo'shiladi. Bu holda transport logistika xarajatlari tovarlar uchun xarajatlar schetida aks ettiriladi:

Debet (Tovarlar uchun xarajatlar) Schet 611: 5000 dollar

Kredit (Naqd pul yoki bank hisobidan to'lov) Schet 512: 5000 dollar

Transport xizmatlari uchun ish haqi. Kompaniya transport xizmati ko'rsatuvchi xodimlarga ish haqi to'lagan bo'lsa, uning hisobi ma'muriy xarajatlar schetida aks ettiriladi:

Debet (Ma'muriy xarajatlar) Schet 641: 1500 dollar

Kredit (Ish haqi to'lovi) Schet 681: 1500 dollar

2. Ombor logistik operatsiyalari xarajatlariga quyidagilar kiradi:

2.1. TMRni miqdor va sifat bo'yicha qabul qilish;

2.2. TMRni tushirish;

2.3. TMRga saqlash uchun ishlov berish;

2.4. TMRni qabul qilish joyidan saqlash joyiga etkazib berish;

2.5. TMRni saqlash uchun joylashtirish va taxlash;

2.6. TMRni saqlash;

2.7. TMRni saqlash joyidan olish va komplektlash;

2.8. TMRni yuklash uchun qadoqlash;

2.9. TMRni yuklash;

2.10. TMRni jo'natish hujjatlarini tayyorlash va rasmiylashtirish.

Ombor xarajatlari quyidagi schetlarda aks ettirilishi mumkin:

Schet 611 – tovarlar uchun xarajatlar, agar ombor logistika xarajatlari tovarlar bilan bog'liq bo'lsa va ularning qiymatiga qo'shiladigan bo'lsa;

Schet 621 – tarqatish va marketing xarajatlari, agar ombor logistikasi bilan bog'liq xarajatlar tovarlarni savdoga chiqarish, tarqatish yoki ombordan tovarlarni jo'natish bilan bog'liq bo'lsa;

Schet 641 – ma'muriy xarajatlar, agar ombor logistikasining ba'zi qismlari kompaniyaning ichki boshqaruv va ombor xo'jaligi bilan bog'liq bo'lsa;



Schet 751 – boshqa xarajatlar, agar ombor logistikasini tashkil etuvchi xarajatlar alohida hisoblar bilan to'g'ridan-to'g'ri ta'riflanmasa.

Tovarlarni omborda saqlash xarajatlari. Aytaylik, kompaniya omborda tovarlarni saqlash uchun 4000 dollar to'lagan. Bu xarajatlar tovarlar uchun xarajatlar schetida aks ettiriladi:

Debet (Tovarlar uchun xarajatlar) Schet 611: 4000 dollar

Kredit (Naqd pul yoki bank hisobidan to'lov) Schet 512: 4000 dollar

Bu holda, omborda tovarlarni saqlash xarajati tovarlarning umumiy qiymatiga qo'shiladi.

Ombor xizmatchisiga ish haqi. Kompaniya ombor xodimlariga 1500 dollar ish haqi to'lagan bo'lsa, bu xarajat ma'muriy xarajatlar schetida aks ettiriladi:

Debet (Ma'muriy xarajatlar) Schet 641: 1500 dollar

Kredit (Ish haqi to'lovi) Schet 681: 1500 dollar

Ombor xizmati uchun ijara to'lovi. Kompaniya ombor xizmati uchun ijara to'lovi amalga oshirgan. Masalan, 2500 dollarlik ijara to'lovi bor. Bu xarajat ma'muriy xarajatlar schetida aks ettiriladi:

Debet (Ma'muriy xarajatlar) Schet 641: 2500 dollar

Kredit (Naqd pul yoki bank hisobidan to'lov) Schet 512: 2500 dollar

ombor logistikasiga doir xizmatlar. Kompaniya ombor logistikasi bilan bog'liq xizmatlar uchun 3000 dollar to'lagan, masalan, tashish, sarflash yoki qayta ishlash xizmatlari. Bu xarajatlar tarqatish va marketing xarajatlari schetida aks ettiriladi:

Debet (Tarqatish va marketing xarajatlari) Schet 621: 3000 dollar

Kredit (Naqd pul yoki bank hisobidan to'lov) Schet 512: 3000 dollar

3. Ichki logistika (tsexlar orasida tashish, ichki ombor) xarajatlari.

Xarajat turlari:

– Ichki tashish vositalari (karlar, yuk ko'targichlar);

– Haydovchi / operator ish haqi;

Ichki tashish logistikasining schetlar rejasida aks etishi:

– 5040 – Ish haqi va ijtimoiy to'lovlar;

– 5010 – Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida;

– 5060 – Amortizatsiya xarajatlari (ichki transport vositalari uchun).

Ushbu hisob schetlari transport, ombor va ishlab chiqarish logistikasi operatsiyalari va ularga sarflanadigan xarajatlarni to'g'ri tasniflash, o'z vaqtida hisobga olish hamda moliyaviy hisobotlarni to'g'ri tuzishga yordam beradi.

XULOSA

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida logistika xarajatlarini hisobga olishni takomillashtirish iqtisodiy jarayonlarni to'g'ri baholash, xarajatlarni samarali boshqarish va moliyaviy hisobotlarning ishonchligini oshirishga xizmat qiladi. Bu borada logistika operatsiyalarini hisobga olish uchun alohida hisob schetlarini joriy etish va ularni turlari bo'yicha identifikatsiyalash zarur. Shu bilan birga, logistika sohasida mutaxassis kadrlarni tayyorlash, moliyaviy hisob va boshqaruv amaliyotini integratsiyalash, hamda xorijiy tajribani lokal sharoitga moslashtirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar ro'yxati

1. International Financial Reporting Standards (IFRS Foundation). – www.ifrs.org
2. Porter, M. E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press.
3. Drucker, P. F. (1962). The Practice of Management. – HarperBusiness.
4. Converse, P. E., Huegy, H., Mitchell, C. F. (2001). Elements of Marketing. – Prentice Hall.
5. Stock, J. R., Lambert, D. M. (2001). Strategic Logistics Management. – McGraw-Hill.
6. IAS 2 – Inventories. International Accounting Standards Board.
7. IAS 1 – Presentation of Financial Statements.
8. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2023). Buxgalteriya hisobi va hisobotlari to'g'risidagi qonun.
9. Nazarov Q.Q., Ergashev Q.S. (2020). Moliyaviy hisob. – Toshkent: Moliya nashriyoti.
10. Saydullaev N.A. (2021). Logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvi. – Toshkent: Iqtisodiyot.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. maxsus son / № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
